

Turkiston tarixi

Milliy maktablarda o'qulmoq uchun milliy tarix kitoblarining luzumi har kimga ma'lumdir. Har millat va har qavm, maktablarida avval o'zlarining milliy tarixini o'qutmaqdadurlar. Ibtidoiy maktablardan maqsud ham o'z ona tilini bildirib, o'z adabiyoti ila oshno qilmak, bilvosita yoshu o'smir bolalarning muloyim qalblariga millat ham vatanga muhabbat urug'ini sochmak; milliy tilni, milliy adabiyotni va milliy tarix ila onlarning fikrlarini tanvir etmakdin iboratdur. Bolalarning hissiyoti milliyalarini uyg'atmak va onlarni chin va haqiqiy millat xodimi qilmoq uchun onlarga milliy tarix o'qutmoq lobudda minhudir. Shuning uchun, madaniy va mutaraqiy millatlar o'z milliy tarixlariga ziyoda ahamiyat beradurlar. Tarix ilmiga ahamiyat berganlari kabi oning olimlarini – muarrixlarni ham e'zoz va takrim qiladurlar. Lekin ma'a taassuf bizim Turkistonda bu kungacha "Tarix"ga ahamiyat berilmadi. Maktablarimiz uchun milliy tarix kitobi (Turkiston tarixi) yozilmadi.

Shul sababdan bo'lsa kerak maktablarimizda o'qigan va o'qib chiqqan bolalarimizda milliy ruh va milliy hissiyot bo'lmay, millat uchun az tahti dil xizmat qilganlari ko'runmay...

Tarix o'qumog'onlikdan kelgan zararlar sanabgina bitirurlik emas: o'z milliy tarixini bilmagan millat, o'z otasini bilmagan "...dan tug'ilgan bir bolaga o'xshaydir. Tarixi majhul bo'lgan millatni istagan qadar tahqir qilurlar, vahshat va jaholatga nisbat berurlar, nohaq iftirolar qilurlar Ammo ul millat voqeda tarixidan ya'ni ota-bobosining dunyoda nechuk umr surgonliklaridan xabarsiz o'ldig'i uchun boshqalar tarafidan qilingon iftirolardan o'zini poklamak va onlar tarafidan suvalangan qarolarni oqlamakdin ojiz qolaroq, turli haqorat va bo'htonlarni bo'yniga olmoqqa majbur bo'lur. Bu satrlarni yozmoqdan maqsudim tarix bilmaganlarni tahqir qilmoq emas, balki onlarga tarixning ahamiyatini bildirmak va shuning ila barobar milliy tarix vujudga kelturmak uchun onlarni targ'ib va tashviq qilmakdur.

Hozirda bu masalaning qiymat va ahamiyatini maktab muallimlari bila boshlaganlar. Faqat, kitob yo'qlikdan bolalarga o'qitmoq xosiyatidin mahrumlar.

Zotan, tarix ahamiyatli bir ilmdir. Agar ahamiyatsiz bo'lsa, Quroni karim va boshqa kitobi samoviy sahifalariga darj etilmas edi. Demak tarix muhim bir darsdir. Millatning butun ahvoli ruhiyasi – jamiyat bashariya va hayoti ijtimoiyada o'ynag'on ro'li yolg'uz shul tarix vositasi ila bilinur. Tarix, millatning joni – ruhiy moddiy va ma'naviy hayotidir...

Tarixning ahamiyati har kimga ma'lum o'ldig'indan bu haqinda so'zni uzoq cho'zub tururg'a hojat ko'rmayman. Faqat, boshqa hech bir ishga qaramasdan soatlar va daqiqalarni uzdurmasdan tezlik ila maktablarimiz uchun "Turkiston tarixi" yozmoq lozimdur.

Muni kim yozar?

Bu savolga javobni qorilarimiz (o'quvchi) va ziyolilarimiz bersunlar.

No'shiravon Yovushev.

"Sadoyi Turkiston" gazetasi. 10 iyun, 1914 yil.

(O.Z.)